

SOG‘LOM OILAVIY MUHITNI HIMOYA QILISHNING QONUNIY ASOSLARI

Sheranova Maryam-JDPU Pedagogika ta’limi nazariyasi kafedrası dotsenti v.b.

Annatsiya: Ushbu maqolada jamiyat hayotining barcha sohalarida amalga oshirilayotgan poklanish, oila, oilaviy munosabatlar, oilada ma’naviy va jismoniy barkamol yosh avlodni tarbiyalash borasida olib borilayotgan ma’naviy-ma’rifiy ishlar. Jumladan: oilaning jamiyatdagi o‘rni, oilaviy munosabatlarga bog‘liq milliy an’analar, sermazmun milliy qadriyatlarning ildizlari ajdodlarimiz merosini o‘rganish va ommalashtirish shuningdek, farzandlarni to‘g‘ri tarbiyalash masalariga oid masalalar yoritilgan.

Kalit so‘zlar: rivojlanish, tarbiya, oila, ma’naviy, jismoniy barkamol, ma’naviyat, qadriyat, yosh avlod, shaxs, ilmiy, amaliy, jamiyat, munosabat, muomala.

O‘zbekiston Respublikasining mustaqillikka erishishi jamiyat hayotining barcha sohalarida amalga oshirilayotgan poklanish, oila, oilaviy munosabatlar, oilada ma’naviy va jismoniy barkamol yosh avlodni tarbiyalash borasida ham jiddiy o‘zgarishlar qilishni taqozo etdi. Jumladan: oilaning jamiyatdagi o‘rni, oilaviy munosabatlarga bog‘liq milliy an’analar, sermazmun milliy qadriyatlarning ildizlari ajdodlarimiz merosini o‘rganish va ommalashtirish, milliy oilaviy tarbiyada umuminsoniy qadriyatlarning o‘rnini yuksaltirish va uning oilada uyg‘unlashuvini ta’minlash, o‘zbek oilasi xos xususiyatlarni (mentalitetini) yaratish va keng targ‘ib etish jamiyatning asosiy negizi hisoblanmish oilani istiqloq mafkurasiga mos shaklan va mazmunan shakllantirishning garovidir.

Har bir millatning ma’naviy boyligi milliy va umuminsoniy qadriyatlarning birligidan tashkil topadi. Ma’naviy meros o‘tmishning yutug‘i uni to‘la, odilona egallash va rivojlantirish esa hozirgi avlod vazifasidir. O‘z madaniy merosini, qadriyatlarini birmaslik yoki mensimaslik manqurtdir. Ularni boyitib, yuksak darajaga ko‘tarishga intilmaslik esa millat va uning istiqloli uchun fojeadir. Ma’naviyatini yuksak darajada rivojlangan insongina istiqloq, vatanimizning ulug‘ bir kelajagi uchun mehnat qilishga o‘ziga kuch va qudrat topa oladi.

Shaxs ma’naviyati dastlab oila sharoitida shakllanadi va jamiyat ma’naviyatini belgilovchi mezon sifatida namoyon bo‘ladi.

Shu boisdan, ma’naviy merosdan, bugungi kun qadriyatlaridan to‘g‘ri foydalana olish, tarixdan to‘g‘ri xulosa chiqara bilish, o‘z tarixiga va bugungi ahvoliga, madaniy merosi va ma’naviy qadriyatlarga, diniga va axloqiga va huquqiy amaliyotiga, turmush tarziga tanqidiy ko‘z bilan qaray olish – mustaqillikning mustahkamlashning muhim ma’naviy asosidir. Mana shu ma’naviy asos har bir ota – ona, oilaga kirib borsagina oila ma’naviyati qaror topishi tabiiydir. Aksincha, bo‘lsa esa oiladagi har bir yoshni jamiyatimizda bo‘layotgan o‘zgarishlarni noto‘g‘ri talqin etishga olib keladi.

O‘zbek oilasida vataniga, xalqiga, oilasiga, istiqlol g‘oyalariga sadoqatli, fidokor, mustaqil fikrlaydigan, dunyoqarashi keng, e‘tiqodi yuksak, iqqidorli, tashabbuskor, mas‘uliyatli, ma‘naviy va jismoniy barkamol avlodni voyaga etkazish kelajagi buyuk o‘zbekistonning gullab – yashnashi uchun garovdir.

Yuksak ma‘naviyatga ega ota – ona oilaning mohiyati, qadri, burch, mas‘uliyati, oila vazifalari, oilada barkamol farzand tarbiyasi, oilani moddiy jihatdan ta‘minlash, uning osoyishtaligini saqlash kabi vazifalarni anglab etadi va unga amal qiladi.

Yuksak ma‘naviyatli ota – ona farzandlarini insonparvar, vatanparvar, axloqiy jihatdan pok, bilimli, kamtar, oliyanob qilib tarbiyalaydi.

Ma‘naviy ilm – fan, falsafa, axloq, huquq, adabiyot va san‘at xalq ta‘limi, ommaviy axborot vositalari, urf – odatlar, an‘analari, din va boshqa ko‘plab tarixiy amaliy va zamonaviy qadriyatlarning ta‘sirida shakllanadi. Aynan shu qadriyatlar oilada ota – ona, katta yoshdagi oila a‘zolari ta‘sirida shakllanadi.

O‘zbek xalqi qadimdan oila ma‘naviyatiga alohida e‘tibor qaratgan. Bugungi kunda ma‘naviy merosdan foydalanib, mustaqil respublikamiz talabiga javob beradigan yoshlarni tarbiyalash har bir oilaning muqaddas burchidir.

Bu burchni sharaf bilan ado etish oilada yosh avlod ongiga avlodlar shajarasi, kasb – kori, urf – odatlari, an‘analari, tarbiya usullari, jamiyat taraqqiyotidagi o‘rni, o‘zga xos ijodiy tarixini singdirish, undan g‘ururlanish hissini tarbiyalashdan boshlanadi. O‘z ota – onasidan, oilasi, avlod – ajdodlari tarixidan g‘ururlangan inson o‘z o‘lkasi, millati, xalqi, tili, dini, madaniyatidan g‘ururlanishi, uni avaylab – asrashi, dunyoga ko‘z – ko‘z qilishi tabiiydir. Buning uchun oilada bolaning ongiga yoshlikdan boshlab «sen tarixi boy, ulug‘ millatning farzandisan», «sen ulug‘ mutaffakkirlar, allomai – zamonlarni dunyoga keltirib, tarbiyalagan bobokalonlarning ajdodisan», «o‘zbek xalqi boy ma‘naviyatli, vatanga, xalqqa, sadoqatli xalq», «Bizning mamlakat dunyoda tabiati eng go‘zal, boy diyor» kabi tushunchalarni singdirib bormoq lozim.

Yurtboshimiz ta‘kidlaganidek: «har bir insonning, ayniqsa, endigina hayotga qadam qo‘yib kelayotgan yoshlarning ongiga shunday fikrni singdirish kerakki, ular o‘rtasida qo‘yilgan maqsadlarga erishishi o‘zlariga bog‘liq ekanligini, ya‘ni bu narsa ularning sobitqadam shijoatiga, to‘la – to‘kis fidokorligiga va cheksiz mehnatsevarligiga bog‘liq ekanini anglab etishlari kerak. Xuddi shu narsa davlatimiz va xalqimiz ravnaq topishining asosiy shartidir». Shu boisdan ham yoshlar tarbiyasiga alohida e‘tibor berish, ularni jamiyatimizning ijtimoiy, iqtisodiy va ma‘naviy taraqqiyotida faol ishtirok etishlarini ta‘minlash har bir oilaning, fuqoroning, davlat va nodavlat tashkilotlarining burch va vazifasi hisoblanadi.

Yurtboshimiz o‘zlarining nutqlarida yoshlar tarbiyasi, oilada tarbiya masalasiga barchaning diqqatini qaratayotgani bejiz emas, chunki XXI asrda yashab samarali mehnat qilish, o‘zbekistonning buyuk kelajagini bunyod etish asosan bugungi yosh avlod zimmasiga tushadi. Shuning uchun yoshlarni chuqur bilimli, yuksak madaniyatli, mehnatsevar va tashabbuskor shaxslar etib shakllantirish oilada hayot tajribaga ega, turmushning achchiq - chuchugini

koʻrgan, qiyinchiliklarda toblangan yoshi ulugʻimiz, faxriylarimiz va ota – onalarning, shu bilan birga mazkur ishga daʼvat etilgan kishilarning mehnatini, oliy himatligini boʻljak boshlangʻich sinf oʻqituvchilariga singdirish lozim.

Sir emaski, maʼnaviy – maʼrifiy islohatlarni mazmum va mohiyatini teran anglamaslik, loqaydlik, mahalliychilik, maʼnaviy va moddiy qadriyatlarga beparvo oila maʼnaviyatiga salbiy taʼsir etuvchi illatlardir. Buning oldini olishning muhim vositalaridan biri oilada boʻsh vaqtni samarali tashkil etishdan iboratdir. Bu bugungi kunda oila darslarini tashkil etish tizimini yanada takomillashtirish masalasini oʻrtaga tashlaydi. Shuning uchun ham biz oʻz izlanishlarimizda oila darslari qanday olib borilsa yaxshi samaraga erishish mumkin degan savolga baholi qudrat javob berishga harakat qilamiz. Buning uchun eng avvalo davlatimsizning oilaga boʻlgan munosabatlariga toʻxtalib oʻtishni maqsadga muoffiq deb bildik. Yurtimizda oila va oilaviy muhitni himoya qilishning qonuniy asoslari muhim manbalarda oʻz aksini topgan.

1. Oʻzbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida oila va uning davlat himoyasida ekanligi toʻgʻrisida qator moddalar bor.

2. Birlashgan Millatlar Tashkiloti (BMT) boʻyicha: BMT ning Bosh Assambleyasining 1993 yil 20 sentyabrdagi yigʻilishida 1994 yildan boshlab har yili 15 mayni “Xalqaro oila kuni” sifatida nishonlashga qaror qabul qilindi.

Bu qarorni qabul qilishdan maqsad va vazifalar bor albatta. Ularni quyidagicha ifodalash mumkin:

Oila tarbiyasi, oilada maʼnaviy qadriyatlar dolzarb boʻlgan jamiyatda oila qadr – qimmatini oshirish va mustahkamligini taʼminlash juda muhimdir.

Yuqoridagi maqsadlardan kelib chiqqan holda quyidagi vazifalarni hal etishimiz zarur:

- inson uchun baxt – saodat ato etuvchi maskanni va muhitni yaratish hamda shakllantirish;

- insonga oila mehr – muhabbat maskani ekanligini asoslash va uni keng targʻib etish;

- oilani erkakga ham, ayolga ham iroda bagʻishlovchi ponogox ekanligini singdirish;

- oila ogʻir kunlarda yupanch va tayanch boʻladigan “Muqaddas Qoʻrgʻon” ekanligini er va xotin ongi va qalbiga singdirish;

- insonlar ongi va qalbiga oilaning mustahkam va farovonligini hamda muntazam harakat qilib borish orqali oiladagi farzandlarni jamiyat manfaatiga yaraydigan qilib tarbiyalashga erishish hamda jamiyat mustahkamligiga xizmat qilish ota – onalarning, jamiyatdagi har bir yoshning muhim vazifasi ekanligini ongli ravishda anglab etishini muhimdir

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.M.Xayrullaev. Maʼnaviyat yulduzlari. –T.: Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 2001.

2.O.Xasanbaeva. Pedagogika tarixidan xrestomatiya.–T. “Oʻqituvchi”, 1993.

3.Pedagogika tarixi. //A.Zunnunov va b. –T.: “Sharq”, 2008, – B. 67-70.

4. Zunnunov A. *Pedagogika tarixi*. – Toshkent: Sharq, 2004. – B. 40.
5. A. *Pedagogika tarixi*. – Toshkent: Sharq, 2004. – B. 42.
7. Sheranova M. B. “G‘arb mamlakatlarida oilaviy munosabatlar”. *International Journal of Education, Social Science & Humanities*. Finland Academic Research Science Publishers ISSN: 2945-4492 (online) | (SJIF) = 8.09 Impact factor 128-132b <https://doi.org/10.5281/zenodo.10926132>
8. Sayyora Muxammadiyeva. Ahmad Yassaviy asarlarida insonning ma’naviy qiyofasi haqidagi qarashlardan foydalanish. “BOSHLANG‘ICH TA’LIMNING ZAMONAVIY TENDENTSIYALARI: TA’LIM VA TARBIYA JARAYONIDA YANGI AVLOD DARSLIKLARI “4K”(KRITIK FIKRLASH, KREATIVLIK, KOLLABORATSIYA, KOMMUNIKATSIYA) MODEL, MUAMMO VA YECHIMLAR” 482-484 b.IV Xalqaro ilmiy-amaliy konferentsiyasi Jizzax shahri, 2024 yil 19 aprel
9. Sheranova M. The Process of Formation of Pedagogical Culture. *Annals of R.S.C.B.*, ISSN:1583-6258, Vol. 25, Issue 4, 2021, Pages. 5899 - 5903 Received 05 March 2021; Accepted 01 April 2021. 5899-5903. <http://annalsofrscb.ro>
10. Usmonova, M. (2023). OILAVIY NIZOLARDA FARZAND VA OTA-ONA MUNOSABATLARI. *Журнал Педагогике и психологии в современном образовании*, (1). *Педагогике и психологии в современном образовании*, 3(3), 152-155.
11. A. Forobiy. Fozil odamlar shahri. –T.: Yangi asr avlodi, 2016 y.
12. Алимкулов, С. О. У., Мелибоев, А. Р., Алимов, Ф. М., Шеранова, М. Б., & Бойтураева, Н. И. (2016). Современные инновационно-информационные технологии обучения в школе. *Academy*, (12 (15)), 70-71.
13. Шарипов, Ш. Р., Шеранова, М. Б., & Рустамов, А. Ш. (2015). Преподавание курса химии и практические работы по решению экспериментальных задач. *Школьная педагогика*, (1), 8-10.
14. Шеранова, М. Б., & Бойтураева, Н. И. (2015). Характерологические особенности личности учителя. *Педагогика высшей школы*, (3), 39-41.
15. Шеранова, М. Б., & Бойтураева, Н. И. (2015). Характерологические особенности личности учителя. *Педагогика высшей школы*, (3), 39-41.
16. Атамурадова, Р. К., & Шеранова, М. Б. (2015). Убеждение-основной способ коммуникативного воздействия учителя на учащихся. *Образование и воспитание*, (2), 1-3.
17. Sheranova, M. (2020). The importance of interactive methods in education. *International Journal of Advanced Science and Technology*, 29(7), 11771-11775.
18. Sheranova, M., & Dzhizak, U. Z. B. E. K. I. S. T. A. N. (2019). THE FORMS OF DEVELOPING PRIMARY SCHOOL CHILDREN’S SPIRIT WITH HADIS. *European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences* Vol, 7(3).
19. Sheranova, M. (2020). TOOLS OF MEDIA EDUCATION TECHNOLOGY IN THE FORMATION OF SPIRITUALITY OF SMALL SCHOOL STUDENTS. In *WORLD SCIENCE: PROBLEMS AND INNOVATIONS* (pp. 240-242).

- 20.Sheranova, M. (2021). The Process of Formation of Pedagogical Culture. *Annals of the Romanian Society for Cell Biology*, 5899-5903.
21. Шеранова, М. Б. (2022). ЎҚУВЧИЛАРНИНГ АКЛИЙ ФАОЛИЯТИНИ ВА ДУНЁКАРАШИНИ ШАКЛЛАНТИРИШ. *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, 10(11), 189-191.
22. Шеранова, М. Б., & Шукурова, Х. С. (2015). Особенности формирования современного педагога. *Молодой ученый*, (22), 884-887.
- Fayziyeva, N. (2024). YOSHLARNI OILAVIY HAYOTGA TAYYORLASHNING IJTIMOIIY-PSIXOLOGIK MUAMMOLARI. Журнал Педагогика и психологии в современном образовании, 4(2), 149-155. извлечено от <https://ppmedu.jdpu.uz/index.php/ppmedu/article/view/9805>
- 23.RAHMANQULOV, S. (2024). YOSHLARDA FAOL HAYOTIY POZITSIYANI SHAKLLANTIRISH MUAMMOSI. News of UzMU journal, 1(1.2. 1), 181-184.
- 24.Sobirovna, F. N. (2024). Psychological Characteristics Of Primary School Students. *Wire Insights: Journal of Innovation Insights*, 2(2), 16-18.
- 25.Fayziyeva, N. (2022). KICHIK YOSHDAGI MAKTAB BOLALARNING KOMMUNIKATIV QOBILIYATLARINI SHAKLLANTIRISH. *Евразийский журнал социальных наук, философии и культуры*, 2(12), 211-215.
- 26.Файзиева, Н. С. (2023, January). СОСТОЯНИЕ ИЗУЧЕНИЯ ПРОБЛЕМЫ ОБЩЕНИЯ В ПСИХОЛОГИИ. In *International Conference of Education, Research and Innovation* (Vol. 1, No. 1, pp. 121-126).
- 27.Nodira, F. (2018). Specificity of interaction between teacher and students in the process of teaching a foreign language. *Вопросы науки и образования*, (8 (20)), 141-143.
- 28.Шеранова, М. Б., Усмонов, А. Ж., Бобомуродов, О. Б., & Рустамов, А. Ш. (2015). Некоторые особенности младшего школьника и методика их изучения. In *Теория и практика образования в современном мире* (pp. 14-18).
- 29.Шеранова, М. Б., & Шукурова, Х. С. (2015). Особенности формирования современного педагога. *Молодой ученый*, (22), 884-887.
- 30.Sheranova, M. B. (2023). TA'LIM-TARBIYA BERISH JARAYONIDA TALABALAR MA'NAVIYATINI SHAKLLANTIRISH. *GOLDEN BRAIN*, 1(1), 90-94.